

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**Yangi O'zbekiston mahallalarida ijtimoiy o'zgarishlar**

**Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li**

Osiyo xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrasi o'qituvchisi  
**Bahronov Firdavs**

Osiyo xalqaro universiteti. Tarix ta'lif yo'naliishi 2-kurs talabasi.

**Annotatsiya.** Yangi O'zbekistonda mahallalarga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mustaqillik yillarida yurtimizda mahalla tizimida misli ko'rilmagan o'zgarishlar amalga oshirildi. Xalqimiz ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Rivojlanayotgan yangi O'zbekistonda mahallaning o'rni beqiyos, albatta. Prezident SH. M Mirziyoyev tomonidan mahalla tizimini isloq qilish bo'yicha bir qancha farmon va qarorlar qabul qilindi va amaliyotga joriy qilinmoqda.

**Materiallar va metodlar:** Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va qiyosiy tahlil hamda dala tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

"Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'naliislari to'g'risida"gi prezident farmoni, Mahallada yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarori, "Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora –tadbirlari tog'risida"gi prezident farmoni.

**Xulosa:** Xokim yordamchilari, mahalla yetakchilari, soliqchi, ijtimoiy xodim har bir mahallada ish faoliyatlarini boshladilar va aholining farovonligiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Yurtimizda mahalla tizimida bo'layotgan islohotlarni boshqarish va nazorat qilish maqsadida Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlanirish agentligi tashkil etildi. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan lavozimlaarning oylik maoshlari yuqori qilib belgilab qo'yildi. O'z ishida faol, mahalla tizimidagi islohotlarda jonbozlik ko'rsatgan xokim yordamchilariga "Yangi O'zbekiston islohotchisi "ko'krak nishoni bilan taqdirlanishi belgilab qo'yildi.

Bugungi globallashuv jarayonida , XXI asrda dunyoning turli mintaqalarida kechayotgan kuchli ijtimoiy-iqtisodiy bo'hronlar sharoitida xalqning azaliy urf-odatlari beshigi bo'lgan mahalla tizimini taqdiq etish har qachongidan ham dolzarb masala hisoblanadi. Bugun dunyo mamlakatlarida kechayotgan ijtimoiy begonalashuv sharoitida bu masala tadqiqi muhimligi yanada oydinlashadi. Uzoq

# FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

tarixni har tomonlama o`rganish orqali, Vatanga, asrlar davomida osha o`z qadr qimmatini yo`qotmagan qadriyatlar, urf odatlarimizga, ajdodlar merosiga umuman olganda o`tmish tariximizga hurmat, mehr oqibat va ayni paytda ertangi kunimizga ishonch paydo bo`ladi. So`nggi yillarda O`zbekistonda yuz berayotgan islohotlar va ijobjiy o`zgarishlar hayotning barcha sohalariga jadal rivojlanmoqda. Davlatning faol ichki siyosati tufayli xalqimizga barcha sohalarda yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar aholiga boshqaruv jarayonlarida, avvalo, mahalliy bo`g`inida faol ishtirok etish imkoniyatini berdi. Bu esa fuqarolik jamiyat qurish sharoitida mahalla institutining davlat va jamiyat hayotidagi tutgan o`rni baland ekanligini ko`tsatadi. Shu boisdan, an`anaviy mahalla tuzilmasining o`zbek xalqi turmush tarzidagi, ijtimoiy va madaniy hayotidagi, oila va jamiyat hayotidagi o`rnini tarixiy nuqtai nazardan tadqiq etish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu xususda mamlakat Prezidenti “... bugun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi zarur. Chunki faollar, ko`pni ko`rgan oqsoqollar, tajribali nuroniyalarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan bigalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to`g`ri yo`lga solishga qodirdir<sup>1</sup>, - deb ta`kidlaganligi ushbu tuzilmaning jamiyat hayotidagi o`rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi. Hozirgi globallashuv jarayonida, mahalla jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy institut sifatida yanada rivojlanib bormoqda. Qadimdan mahalla mahalliy hokimiyatning ajralmas bo`g`ini hisoblangan. O`lkamiz tarixi haqida eng qadimgi manba hisoblanmish “Avesto”da ham oilalarning ma’lum hududda uyushib yashaganligi haqida ma’lumotlar bor<sup>2</sup>. IX asr tarixchisi Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Buxoroda ko`plab mahallalar, guzarlar mavjud bo`lganligi haqida yozadi<sup>3</sup>. Yurtimizning turli joylaridagi mahallalar hududiy o`ziga xosliklarga ega. Buxoro shahri mahallalari vujudga kelishi va tarixiga bag`ishlangan O.A.Suxarevaning asarlari anan`anaviy o`zbek mahallalari tarixiga bag`ishlanganligi bilan diqqatga sazovordir.<sup>3</sup> Qadimdan o`zbek mahallalari jamiyat ijtimoiy hayotining tayanchi bo`lgan, xususan, istiqlol yillarida o`z-o`zini boshqarish organlari tizimini isloh qilish ,ularning moddiy- texnik bazasini yaxshilash borasida tizimli ishlar amalga oshirildi. Mahalla tizimini takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi. Mahalla-taraqqiyot poydevori bo`lib xizmat qilyapti. Bugungi kundagi zamonaviy mahallada hokim

<sup>1</sup> Mahalla tinchlik va osoyishtalik obodlik va farovonlik markaziga aylanadi.// O`zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyev raisligida 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish,mahallalarda tinchlik osoyishtalik mustahkamlash,jinoyatachilikni oldini olish masalalariga bag`ishlangan videoselektor yig`lishi//Xalq so`zi.N32.- Toshkent,2020.

<sup>2</sup> Авесто тарихий-бадиий ёдгорлик /Аскар Маҳкам таржимаси. – Тошкент:Шарқ,2001.-B.34

<sup>2</sup> Абу Бакр Мұхаммад ибн Жағфар ан- Наршахий.Бухоро тарихи.-Тошкент,1993.-B.45-67

<sup>3</sup> Сухарева О.А Квартальная община позднефеодального города Бухары.-Москва:Наука,1978.-C.22

## **FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

yordamchisi,yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli kabi lavozimlar joriy qilindi. Ular bevosita prezidentning joylardagi vakili sifatida mahalla aholisining o‘ziga tegishli qatlamlari bilan faoliyat olib boradilar. Bevosita mahalla hayotidagi ijtimoiy muammolarni yechishda joylarda jonbozlik ko‘rsatadilar. Yuqoridagi lavozimlarning faoliyatini tartibga solish maqsadida huquqiy asos ham yaratildi. Jumladan, “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish,aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi prezident farmoni, “Mahallada yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi prezident qarori, “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident farmoni<sup>1</sup>. Mahalla yoshlarini ilm-fanga va kasb-hunarga yo‘naltirishda, ishsizlarni ish bilan ta’minlash va bandlikka ko‘maklashish masalalarida muhim ijtimoiy obyekt hisoblanadi. Aholi muammolarini hal etish,tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish, oila va xotin-qizlar masalalari—bugungi kundagi zamonaviy mahallalarning muhim ijtimoiy muammolarini hisoblanadi. Yuqoridagi masalalar bilan ishslashning samarali tizimini yaratish maqsadida har bir mahallada “Temir daftar”, ”Ayollar daftari”, ”Yoshlar daftari” shakllantirildi.

“Temir daftar –ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti o‘g‘ir hamda sektor rahbarlari tomonidan alohida nazoratga olingan oilalarni qayd etish, muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma’lumotlar bazasi.

“Ayollar daftari – ijtimoy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtyoqi bo‘lgan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma’lumotlar bazasi. Ushbu daftarga kiritish bo‘yicha xotin-qizlar faoli amaliy ishlar olib boradi, ma’lumotlar bazasini yaratadi va nazoratini olib boradi.

“Yoshlar daftari” - ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy qo‘llab-quvvatlash, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtyoqi bo‘lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib boorish bo‘yicha ma’lumotlar bazasi.Yuqorida sanab o‘tilgan ma’lumotlar bazalari mahallalardagi ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi.

---

<sup>1</sup> “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident farmoni.

## **FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

Mahalla jamiyatimizning mustahkam poydevori, aholi muammolarini hal etishning muhim mexanizmiga aylanayapti.

Aholi muammolarini hal etish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar bilan ishslash tizimini takomillashtirish maqsadida “mahallabay”, “xonadonbay”, “fuqarobay” ishslash tizimi joriy qilindi. Joriy yil hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli lavozimlari joriy qilindi. Har bir lavozimga munosib oylik maoshlari belgilandi. Mahallalarda yangi lavozim egalarining amalga oshirishi kerak bo’lgan vazifalari belgilab qo’yildi.

Quyidagilar hokim yordamchisining asosiy vazifalari va faoliyat yo’nalishlaridir.

1. Mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni “xonadonbay” o’rganish
2. Doimiy daromadga ega bo’lmagan ishsiz aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o’rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o’rgatuvchi o’quv markazlariga yo’naltirish hamda o’qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta’minalashga yordam berish
3. Mahallada istiqomat qiluvchi aholining oillaviy tadbirkorligini rivojlantirish
4. Aholi tomorqalaridan foydalanishni samarali tashkil etish
5. Mahalladagi mavjud bo’sh ish o’rinlari hamda xo’jalik yurituvchi subyektlarning mavsumiy ishchilarga bo’lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni birinchi navbatda “temir daftar” va “yoshlar daftari” kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni bo’sh ish o’rinlariga joylashtirish hamda haq to’lanadigan jamoat ishlariga jalb etish.

Quyidagilar mahalladagi yoshlar yetakchisining asosiy vazifalaridir.

1. Yoshlar balansini shakllantirish, yoshlar to’g’risidagi zarur ma’lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portalı” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish
2. Mahallada yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish
3. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarni rag’batlantirish hamda hayotda o’z o’rnini topishlariga ko’maklashish
4. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol toptirish
5. Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo’lgan yoshlar bilan tizimli ishslash, jazoni ozod etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o’quv –tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko’maklashish1

# FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

Mahalladagi xotin – qizlar faolining asosiy vazifalari quyidagilardir.

1. Xotin-qizlarni mahallalar va mehnat jamoalarida ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab – quvvatlash, ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy muhitini va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
2. Xotin-qizlarning tadbirkorlik g'oyalarini amalga oshirish, ular faoliyatiga kredit, subsidiya va boshqa yordam choralarini jalb qilish bo'yicha mahallada tadbirkorlikni rivojlanterish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tuman xokim yordamchisi bilan hamkorlik qilish;
3. "Ayollar maslahat kengashlari" bilan hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish, biznesga oid namunaviy rejalar ni ishlab chiqish va kredit olishda ularga ko'maklashish, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish;
4. "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish;

5. Xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin –qizlar, jumladan, nogironligi bo'lган ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish , ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish2

Bundan tashqari mahallalardagi kam ta'minlangan , boquvchisini yo'qotgan ayollar bilan ishslash xotin-qizlar faoli lavozimining asosiy vazifalaridan biri qilib belgilandi. Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik, qo'llab quvvatlashga bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyocoq bo'lgan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlab ularni "Ayollar daftari"ga kiritish bo'yicha ham xotin-qizlar faoli amaliy ishlar olib boradi. "Ayollar daftari" bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratadi va nazoratini olib boradi.

Yangi O'zbekistonda mahalla boshqaruvida yoshlar bilan ishslashning o'ziga xos tizimi yaratilmoqda, unga ko'ra yoshlar to'g'risidagi ma'lumotlar "Yoshlar daftari", "Yoshlar portal" electron platformalariga kiritilib, ular bilan samarali ishslash tashkil etilgan. Ma'lumotlarga qaraganda maktabni bitirib, uyda ishsiz qolayotgan yoshlar orasida ayollar salmog'i ancha yuqori 51 foizni tashkil etadi. 18 yoshga yetgan dan keyin ushbu k'rsatkich yanada yuqorilab 71 foizga

# FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

yetmoqda<sup>1</sup>. Joriy 2023-yilda Buxoro viloyatida 534 ta maktablarda 21 ming 944 ta yosh məktəbni təgətib, kəta yə'lga qadam qo'yemoqda. Bu yoshlar bilən manzilli ishlash yoshlar yetəkchisi zimmasıda bo'ladi. Yoshlar bo'sh vəqt deyanda ishdən (mehnat fəoliyatından) təşqari vəqtini (34,1 %), dam olish vəqtini (19,1 %), o'qışdan ortgan vəqtini (17,3 %), uy ishlaridan ortgan vəqtini (16,4 %), bekorchilik vəqtini (7,3 %) və fəqatgina 11,8 % i biror ishni bajarış uchun oldindan rejəlashtirilgan vəqtini tushunadi. Demak, yoshlar orasida kundalik hayotni rejəlashtirishda qator tushunmovchiliklər mavjudki, bu hələt ular orasında vəqtini to'g'ri təqsimlash rejası mavjud bo'lmagani bois, aksariyyət hələtlərdə mazkur vəqtdən heç qanday samaraga erişilməsligi bilən təgəydi. Bunda mehnət fəoliyatida ham kə'pincha ijro intizomiga rioya qılmaslik ham təqsimətdəgi boshqa vazifalarning umuman rejəlashtirilməy qolishi və amalğa oshirilməsligə əlib kelədi. Statistik mə'lumotlarga qaraganda, sotsiologlar tomonidan XX asr oxırlarida yoshlarning bo'sh vəqtdən samarali foydalananıñ 500 dan ortiq turi hisoblab chiqılğan. Yoshlarning aksariyyəti bo'sh vəqtini uyda (79,4 %), mə'lum bir qismi esa uydan təşqarida (20,6 %) o'tkazadi. Tadqiqot natijalariga kə'ra, Yoshlarning 74,4 % i bo'sh vəqtidə bajaradıgan ishlarnı oldindan rejəlashtiradi, 25,6 % i esa vaziyat və şaroitga qarab yo'1 tutar ekan. Yoshlar bo'sh vəqtlerini kitob o'qışga (25,5 %), yosh oilalarda esa farzand tarbiyasi bilən shug'ullanishga (20,5 %), do'st və yaqinlar bilən o'tkazishga (18,6 %), shuningdek, kə'pcəlilik yoshlar o'z bo'sh vəqtini Internet tarmoqlarida (18,2 %) o'tkazsa, ayrimlari televizor kə'rish yoki radio tinglash (17,7 %) uchun sarflaydi<sup>1</sup>. Bunda o'z ustida ishlaydigan, a'lo baholarga o'qiydigan, o'z tadbirkorligini yə'lga qo'ygani holda ish joyiga ega bo'lğan iqtidorlı və ijtimoiy faol yoshlarnı "yaxshi" toifaga, turmush taqozosı bilən rəsmiyyət sektordan ish topa olmagan, lekin iqtisodiy faol, kelajakka ishonuvchi yoshlarnı "o'rtə" toifaga, shuningdek, davlatning gəməxōrlığı və e'tiborini kutayotgan, kə'makka muhtoj yoshlarnı "ahvoli og'ir" toifaga alohida ajratıb, ular bilən tizimli ishlashga doir aniq chora-tadbır ishlab chiqilmoqda. Buxoro tumani "Qavola Mahmud" MFY da aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolını yaxshilash, ishsizlikni bartaraf etish, tadbirkorlik tashabbuslarını qo'llab-quvvatlash orqali ish o'rınlarini yaratishga qaratilgan ishlar ham ham amalğa oshirildi. Statistik mə'lumotlardan kə'rinishicha, 2022 yilda əlib borilgan ishlar

<sup>1</sup> <https://yuz.uz/uz/news/mahalladagi-yoshlar-etakchisi-hududlardagi-ogil-qizlarning-muammosini-hal-etishda-koprik-vazifasini-otaydi>

<sup>1</sup> ХАКНАЗАРОВ ХУДОЙБЕРДИ ДИЛМУРОДОВИЧ ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИНИНГ КУНДАЛИК ТУРМУШ ТАРЗИ /Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ Тошкент – 2019

# **FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

natijsida “Temir daftar”dan 98 nafar, “Ayollar daftari”dan 77 nafar fuqaro, “Yoshlar daftari”dan 36 nafar yigit-qiz chiqarilgan. Ularga o‘zlari ishlab, daromad topishlari uchun sharoit yaratib berilgan.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.03.2022 yildagi PF-81-son “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”prezident farmoni.//lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi-Mamlakatimiz xotin-qizlari uchun munosib sharoit yaratib berish-doimo e’tiborimiz markazida.”/”Milliy tiklanish” 2023-yil 8-mart
- 3 .“Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish,aholi bandligini ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi prezident farmonii.2021- yil 3-dekabr 29-son.lex.uz
- 4.”Mahallada yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni.2022-yil 19-yanvar 92-son.lex.uz
5. ”Oila va xotin-qizlar bilan ishlash,mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora–tadbirlari tog‘risida”gi prezident farmoni. Prezident farmoni.2022-yil 1-mart 81-son.lex.uz  
Alimova G., Yo‘lchiyeva G., Miraxmedova M. Fuqarolar yig‘inlari huzuridagi “Ota-onalar universitetlari” ishini tashkil etish. – Toshkent: 2014. – B. 5-7.
6. Арифханова З.Х. Современная жизнь традиционной махаллы г. Ташкента. – Ташкент, 2000. – С. 4-31
7. Yui Shin Ne. “Globallashuv jarayonida mahalla instituti va milliy an’analar transformasiyasi” (O‘zbekiston va Janubiy Koreya misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertasiyasi Avtoreferati. T., 2017
8. Umarova G. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlarining shakllanishi va takomillashtirish tarixi. (1991-2001 y). Tarix fan nomz. diss. avtoreferati.- Toshkent, 2002. B. 12